

**TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN HAMDA UNING BUGUNGI
KUNDAGI AHAMIYATI**

Norov Odiljon Murodulloyevich

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Temuriylar davrida ilm-fan sohasida yuz bergan yuksalish, uning asosiy vakillari, fanning tarmoqlari bo'yicha erishilgan yutuqlar hamda ushbu tarixiy davr merosining bugungi kun uchun qanday ilmiy, ma'naviy va madaniy ahamiyatga ega ekani tahlil qilinadi. Maqola tarixiy tahlil, madaniyatlararo uzviylik va zamonaviy strategik fikrlash nuqtai nazaridan yondashilgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, ilm-fan, tarixiy meros, madaniy yuksalish, Ulug'bek, zamonaviy ahamiyat.

KIRISH

O'zbek xalqi tarixida Temuriylar davri o'ziga xos yuksak ilmiy va madaniy uyg'onish bosqichi sifatida ajralib turadi. Buyuk Sohibqiron Amir Temur tomonidan asos solingan Temuriylar saltanati nafaqat siyosiy va harbiy kuchga, balki ilm-fan va madaniyatning rivojiga keng yo'l ochgan davr bo'lib tarixga muhrlangan. Ayniqsa, Ulug'bek kabi yirik mutafakkirlar, olimlar, shoirlar va me'morlarning faoliyati tufayli bu davr Markaziy Osiyoda ilmiy fikr, astronomiya, matematika, tarix, falsafa va adabiyot sohalarida yuksalish davri sifatida baholanadi.

Bugungi kunda ilmiy va ma'naviy taraqqiyot yo'lida Temuriylar davri merosidan ilhomlanish, ularning qadriyatlarini va ilmiy an'alarini qayta tiklash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti avvalo Amir Temurning o'zi tomonidan ilm va olimlarga nisbatan ko'rsatilgan e'tibor, ularning himoyasi va

qo'llab-quvvatlanishi bilan bevosita bog'liq edi. Amir Temur o'zining "Tuzuklari"da ilm egalariga g'amxo'rlik qilish zarurligini bir necha bor ta'kidlagan. Uning bevosita tashabbusi bilan Samarqand, Buxoro, Hirot, Toshkent va boshqa shaharlarda madrasa, kutubxona, observatoriya va boshqa ilmiy muassasalar tashkil etilgan.

Bu davrda ilm-fanning barcha sohalarida, ayniqsa, astronomiya, matematika, tarixshunoslik, tilshunoslik, adabiyot, falsafa va tabiiy fanlarda jadal rivojlanish kuzatildi. Ilm-fan rivoji nafaqat musulmon sharqida, balki Yevropa va Osiyo olimlari tomonidan ham e'tirof etilgan [1].

Temuriylar davrida eng yorqin shaxs — bu albatta Mirzo Ulug'bekdir. U nafaqat hukmdor, balki astronom, matematik va ilm homiysi sifatida butun Sharq sivilizatsiyasida o'z o'rniga ega. Ulug'bek tomonidan tashkil etilgan Samarqand rasadxonasi o'z davrining eng ilg'or ilmiy markazlaridan biri bo'lib, bu yerda Al-Koshiy, Qazizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid kabi mashhur olimlar faoliyat yuritgan.

Ulug'bekning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" nomli astronomik asari keyinchalik Yevropa olimlari tomonidan ham asosiy manba sifatida o'rganilgan. Bu esa Temuriylar davrida yaratigan ilmiy merosning global miqyosda ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Temuriylar davrining o'ziga xos jihati shundaki, ilm-fan va adabiyot o'zaro chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Shoir va adiblar, xususan, Lutfiy, Alisher Navoiy, Jomiy kabi allomalar o'z asarlarida ilm, ma'rifat, insoniylik va donishmandlik g'oyalarini targ'ib etganlar. Ayniqsa, Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub", "Xazoyin ul-maoniy" va "Mezon ul-avzon" asarlarida ilmning inson hayotidagi o'rnini chuqur tahlil etgan.

Ilm-fan vakillari til, din, madaniyat, tasavvuf, adabiyot va falsafa kabi yo'nalishlarda faoliyat yuritib, bugungi ilmiy tafakkurga poydevor qo'yganlar.

Temuriylar davri ilm-fan merosini bugungi kunda ikki asosiy yo'nalishda baholash mumkin: ilmiy-ma'rifiy ilhom manbai sifatida va zamonaviy taraqqiyot strategiyasining ideologik tayanchi sifatida [2].

Birinchidan, bu davrda shakllangan ilmiy an'analar bugungi zamonaviy akademik muassasalarda, universitetlarda, fanlar akademiyasi tizimida davom etmoqda. Ikkinchidan, bu tarixiy tajriba yosh avlodni intellektual salohiyatga da'vat etuvchi kuchli ruhiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ilmga sadoqat, ustoz-shogird an'anasi, ilm uchun fidoyilik — bu Temuriylar davri merosining hozirgi kun bilan uzviy bog'liqligini anglatadi.

Ayni paytda davlat siyosatida tarixiy merosga tayanish, Ulug'bek nomidagi ilmiy markazlar, ilm-fan sohasidagi grantlar, yoshlarni fundamental fanlarga jalb qilish, ilmga qiziqishni rag'batlantirish – bularning barchasi Temuriylar zamonidan uzviylikni ifodalaydi.

Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyotining yana bir muhim jihati bu – davlat siyosatining ilm-fanga yo'naltirilganligi bo'lib, bu holat o'z davri uchun noyob madaniy-falsafiy hodisa sifatida e'tirof etiladi. Amir Temur va uning avlodlari davlat barpo etishda harbiy kuch va iqtisodiy qudrat bilan bir qatorda, ilm-ma'rifatni asosiy ustunliklardan biri sifatida ko'rganlar. Aynan shuning natijasida Temuriylar davrida “olimlar jamiyatning ustuni”, “ilm – davlatni barqaror tutuvchi qudratli kuch” degan qarashlar davlat siyosatining ideologik asosi sifatida qaralgan [3].

Temuriylar siyosiy-harbiy kuchni saqlab qolish uchun ilmiy kadrlar tayyorlash, madrasa va kutubxonalarni ko'paytirish, bilimdon kadrlarga ijtimoiy imtiyozlar berish amaliyotini joriy etganlar. Bu siyosat o'z natijasini bergan: Hirot, Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Marv, Balx singari shaharlarda ilmiy va madaniy markazlar faoliyat yuritgan, har bir hududda o'ziga xos fan tarmoqlari rivojlangan.

XULOSA VA MUNOZARA

Temuriylar davri nafaqat Sharq sivilizatsiyasida, balki butun jahon tarixida ilm-fan taraqqiyoti nuqtai nazaridan alohida o'rin egallaydi. Bu davrning yirik allomalari, ilmiy maktablari, tajribalari va ma'naviy qadriyatlari bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Bu tarixiy boylik biz uchun faqat faxr manbai emas, balki strategik yo'l-yo'riq, ilmiy islohotlar uchun ilhom manbaidir. Temuriylar davri bizni ilmni qadrlash, uni rivojlantirish va uni hayotga tatbiq etish madaniyatiga da'vat etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shoniyozov, K. (2000). Temuriylar davri va ularning ilm-fanga qo'shgan hissasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
2. Niyozmetov, A. (2011). Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat. Toshkent: Fan.
3. Rasulov, N. (2020). Mirzo Ulug'bek: ilmiy merosi va zamonaviylik. Samarqand: Ilm Ziyo.